



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–aprel jag'daii'na

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1069 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **-0,7 f.r kamai-gan.**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **798 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-aprel oyida Respublikada 1094 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 223 ga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7.2 % ga kamaygan hamda ularning soni 296 ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1069 (7,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14618 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,6 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,3 %) va Amudaryo (7,2%) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | birlik | jamiga nisbatan % | birlik | jamiga nisbatan % |
| Qoraqalpogiston Respublikasi | 15185 | 100,0 | 14618 | 100,0 |
| Nukus sh. | 4915 | 32,3 | 4771 | 32,7 |
| <i>tumonlar:</i> | | | | |
| Amudaryo | 1088 | 7,1 | 1058 | 7,2 |
| Beruniy | 1264 | 8,4 | 1217 | 8,4 |
| Qanliko'l | 406 | 2,7 | 390 | 2,7 |
| Qorao'zak | 423 | 2,8 | 421 | 2,9 |
| Kegeyli | 444 | 3,0 | 443 | 3,1 |
| Qo'ng'iro't | 888 | 5,8 | 828 | 5,6 |
| Mo'ynoq | 236 | 1,6 | 229 | 1,5 |
| Nukus | 620 | 4,1 | 595 | 4,1 |
| Taxiatosh | 388 | 2,5 | 366 | 2,5 |
| Taxtakopir | 288 | 1,9 | 278 | 1,9 |
| To'rtko'l | 1534 | 10,2 | 1428 | 9,8 |
| Xo'jayli | 785 | 5,1 | 734 | 5,0 |
| Chimboy | 589 | 3,9 | 562 | 3,8 |
| Shumanay | 360 | 2,4 | 350 | 2,4 |
| Ellikkala | 957 | 6,3 | 948 | 6,5 |


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,3 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda - 0,7 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,7 % savdoda, 12,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 10,3 % qurilishda, 10,3 % sanoatda, 5,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,1 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 31,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-aprel holatiga 1094 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (308 ta), To'rtko'l (93 ta), Amudaryo (87 ta) va Kung'iroq (77 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtako'pir (26 ta), Kegeyli (27 ta) hamda Mo'ynoq (28 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (195 ta), savdoda (166 ta), sanoatda (148 ta), qurilishda (134 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta), hamda tashish va saqlash (28 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-aprelga. | 2018 yil yanvar-aprelga. |
|--|--------------------------|--------------------------|
| Jami: | 871 | 1094 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 209 | 195 |
| Sanoat | 217 | 148 |
| Qurilish | 97 | 134 |
| Savdo | 143 | 166 |
| Tashish va saqlash | 31 | 28 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 70 | 57 |
| Axborot va aloqa | 20 | 10 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 14 | 21 |
| Boshqa turlari | 70 | 335 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,2 f.p), savdoda hamda tashish va saqlashda (-0,5 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,7 f.p.), qurilishda (+0,6 f.p.), sanoatda (+0,4 f.p.) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.), hamda boshqa faoliyat turlarida (+0.5 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi | 01.05.2018 y. | 01.05.2017 y. | farqi (+-) |
|--|---------------|---------------|------------|
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1,8 | 3,0 | -1,2 |
| Savdo | 20,7 | 21,2 | -0,5 |
| Tashish va saqlash | 5,1 | 5,6 | -0,5 |
| Axborot va aloqa | 2,1 | 2,2 | -0,1 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 12,5 | 11,8 | 0,7 |
| Qurilish | 10,3 | 9,7 | 0,6 |
| Boshqa turlari | 31,3 | 30,8 | 0,5 |
| Sanoat | 10,3 | 9,9 | 0,4 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha | 5,9 | 5,8 | 0,1 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 may holatiga 11227 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2818 ta, oilaviy korxonalar – 542 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7540 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 31 tani va boshqalar 296 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 91 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 30,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 53 tasi qo'shma korxonalar, 38 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar 20 ta (22,0 %), Kegeyli , Qo'ng'iro't, Moynoq va Taxiato'sh tumanlarida 7 tadan (7,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar To'rtko'l va Shumanay tumanlarida 2 tadan (2,2 %), Ellikkala tumanida 1 ta (1,1 %), hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 46 ta (50,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 23 ta (25,3 %), savdoda 13 ta (14,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish hamda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tadan (1,1 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 13 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga ko'paygan yoki 3,2 baravarga oshgan.


Bunda, Pokiston Islom Respublikalarida – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya Respublikalarida – 3 tadan, Rossiya Federatsiyasi – 2 ta, hamda Janubiy Koreya Respublikasi va Hindiston Respublikasi- 1 tadan va boshqa davlatlarda 3 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprelga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta, sanoat va qurilish, savdoda va boshqa turlarda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11157 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 9,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3958 tasi (35,5 %) Nukus shahriga, 1186 tasi (10,6 %) To'rtko'l tumaniga, 958 tasi (8,6 %) Beruniy hamda 772 tasi (6,9 foizi) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11157 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3011 tasi (27,0 %) – savdoda, 1770 tasi (15,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1502 tasi (13,5%) - qurilishda, 1479 tasi (13,3 %) - sanoatda, 864 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 744 tasi (6,7 %) - tashish va saqlashda, 262 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 186 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1339 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 812 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 43 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahrida (257 ta), To'rtko'l tumanida (77 ta), Amudaryo tumanida (72 ta) va Nukus tumanlarida (60 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir tumanida (13 ta), Mo'ynoq tumanida (17 ta) hamda Kegayli (18 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (195 ta), savdoda (166 ta), sanoatda (148 ta) va qurilishda (134 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta) hamda tashish va saqlashda (28 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 568 tani tashkil etib, ulardan 542 tasi yoki 95,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **13,1** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 30,8 % yoki 167 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,4 % yoki 132 tasi sanoat, 23,6 % yoki 128 tasi savdo, 7,2 % yoki 39 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 10 tasi axborot va aloqa va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 4 tasi qurilish, 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 9,3 % yoki 50 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Qalmuratova
(0371) 230-82-23



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan